**Аннотация:** В данной статье речь пойдет об анализе повышения эффективности организации экосистемы бизнеса в деятельности коммерческих банков в нашей стране, а также о совершенствовании перспектив развития. Представлены также существующие в мире проблемы, связанные с эффективной организацией деятельности цифровых платформ и экосистем путем расширения их возможностей применения в банковской деятельности, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

**Ключевые слова:** банковская экосистема, коммерческие банки, банковская система, кредит, депозит, процентные и беспроцентные расходы, банковские доходы и расходы, прибыль, чистая прибыль.

## KIRISH

O'zbekistonda an'anaviy to'lov usullaridan foydalanish jarayonlari hanuzgacha davom etayotgani, ushu jarayon ko'p bosqichlardan iborat ekani natijasida to'lov tizimida noqulayliklar kuzatilmoqda. Mustaqil bank tizimiga ega bo'lgandan boshlab tijorat banklari to'lov tizimlaridaga eng so'nggi texnologiyalarni qo'llash orqali to'lov jarayonini samarali, xavfsiz, tez, arzon va sodda boshqarishga o'tilmoqda.

Shu sababli zamonaviy banklar va to'lov xizmatlari raqobatbardosh to'lovlar sohasida o'z mijozlarining so'nggi talablarini qanoatlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Respublikada "bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarini keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda"<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Banklarda axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish bo'yicha eng zamonaviy usullarni joriy qilish tizimini ilmiy jihatdan asoslab berish dolzarb hisoblanadi.

Banklarning eng muhim vazifalari pul aylanmasi va kapital aylanmasini uzlusiz ta'minlash, milliy iqtisodiyotning jamg'armalarini to'plash uchun mablag'larni investitsiyalash uchun keng imkoniyatlarni taqdim yetishdir. Zamonaviy iqtisodiyotda ekotizim biznes modellari keng tarqalmoqda, ularning salohiyati moliya institutlari tomonidan tobora ko'proq tushunilmogda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'grisida"gi Farmon. Qonun hujjalari ma'lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.



## MAVZUGА DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank biznesi ekotizimlari – bu moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun birqalikda ishlaydigan o'zaro bog'liq tashkilotlar, xizmatlar va texnologiyalar tarmog'idir. Ular mijozlar uchun innovatsion va samarali yechimlarni yaratish uchun banklar, moliya institutlari, texnologiya provayderlari va bozorning boshqa ishtirokchilarini birlashtiradi.

O.Dyachenkoning fikricha, "tijorat banklarida biznes ekotizimlarni joriy qilish, foydalanuvchilar haqida juda ko'p ma'lumotlarni onlayn va oflays rejimda to'plash hamda qayta ishlashga, mavjud bo'lgan har qanday kanallar orqali samarali aloqalarni o'rnatishga imkon beradigan AT-tizimlarning yetarli darajada rivojlanganligi va ko'plab xizmatlarni masofadan turib taqdim etish imkoniyatini yaratadi"<sup>2</sup>.

Iqtisodchi olim A.Ivanovning ilmiy izlanishlarida "bank biznesidagi ekotizim konsepsiysi mijoz uchun umumiyl qiyamat bilan bog'liq bo'lgan bir nechta xizmatlarning bitta foydalanuvchi interfeysga qo'shilishi qator quylayliklar yaratadi deya fikr bildirib o'tgan"<sup>3</sup>.

McKinsey konsalting tashkiloti tadqiqotlarida, "dunyodagi banklarda xususiy kapital rentabelligi (ROE) bir joyda muqim turib qolgan, ya'ni oxirgi 10 yilda bu ko'rsatkich o'rtacha 8-10 foiz atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilga borib 5,2-9,3 foiz oralig'ida bo'lishi taxmin qilinmoqda"<sup>4</sup>. Mazkur holat bank tizimining moliyaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, "ekotizim mexanizmini rivojlantirishga undamoqda. Bunda elektron tijorat onlayn platformalari banklarga o'z mijozlari bilan yaqin aloqada bo'lib turish bilan birga ularning moliyaviy ahvoli, psixologik portreti, xohish-istiklalini aniqlash imkonini beradi"<sup>5</sup>.

M.J.Yakobides, K.Kennamo, A.Gaver o'z tadqiqotlarida "ekotizim tushunchasini aniqlash bo'yicha ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatishadi: birinchi yondashuvda ekotizim ma'lum darajada ishlab chiqarish va ishlab chiqarish omillariga nisbatan o'zaro bog'liq bo'lgan tashkilotlar guruhi sifatida qaraladi, ikkinchisida esa, o'zaro bog'liq texnologiyalar tizimi sifatida e'tirof etishadi"<sup>6</sup>.

R.Adner o'z ilmiy qarashlarida, "ekotizimlarni ikkita asosiy yo'nalish: ekotizimlar mansublik sifatida (ecosystems as affiliation) va ekotizimlar tuzilish sifatida (ecosystems as structure) talqin etadi. Bunday holda, ekotizim, mansublik sifatida, an'anaviy sanoat chegaralarini yo'q qilishga va bir xil sanoat ichida ham, tarmoqlararo darajasida ham kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va simbiyotik munosabatlarning o'sishiga qaratiladi. Tuzilma sifatida ekotizim bo'lsa, qiyamat taklifini yaratishni o'rganishga va ma'lum bir qiyamat taklifiga erishish uchun o'zaro ta'sir qilishiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mansublik sifatida ekotizim tushunchasi mutlaqo yangi tushuncha emas, balki korxonani umumlashtirilgan yoki makro darajada o'rganadigan biroz takomillashtirilgan tushunchadir. Ekotizim ma'lum qiyamat takliflarini amalga oshirish uchun o'zaro ta'sir qilishi kerak bo'lgan va innovatsion faoliyatning uyg'unligini ta'minlaydigan tuzilma bilan o'zaro bog'langan ko'p tomonlama sheriklar to'plami"<sup>7</sup>, deb ta'riflaydi.

R.Kapur, A.Gaver, M.Kusumano, G.Parker, M.Van-Alstinlar o'z ilmiy izlanishlarida "platformalarga asoslangan biznes ekotizimlariga e'tibor qaratishadi va mahsulot ekotizimlari (product-based ecosystems) va platforma ekotizimlari (platform-based ecosystems) o'rtasidagi tushunchalarni ajratadilar"<sup>8</sup>.

Platforma ekotizimi "uning egasi tomonidan boshqariladi, u ushbu ekotizimning bir qismi bo'lgan ishtirokchilar uchun platforma arxitekturasi va qoidalarini yaratadi. Bozorning bir tomonlama o'zaro ta'sirini, xususan, ishlab chiqarish korxonasi (etkazib beruvchi) va xaridor (foydalanuvchi) o'rtasidagi o'zaro ta'sirni nazarda tutadigan mahsulot ekotizimidan farqli o'laroq, platforma ekotizimi yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro faoliyat funksional tarmoq effektlari doirasida yuzaga keladigan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bozorning o'zaro ta'sirini nazarda tutadi"<sup>9</sup>.

Ilmiy izlanishlar doirasida bank ekotizimi atamasining ta'rifiga ham alohida e'tibor berish zarur. "Tijorat banklari ekotizimi – o'z mijozlarning ko'proq ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etadigan, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan turli kompaniyalar yoki xizmatlar va mahsulotlarni o'z ichiga olgan bank tashkiloti yoki bank boshchiligidagi kompaniyalar guruhi tushuniladi"<sup>10</sup>.

A.A.Koblkoning ilmiy qarashlarida "ekotizimni iqtisodiyotning turli sohalaridan mahsulot va xizmatlarni birinchi navbatda yagona brend ostida va yuridik shaxsga murojaat qilmasdan taklif qiluvchi korxonalar

2 Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy bankovskiy jurnal (NBJ). 2018. 5

3 Ivanov, A. Ekosistema naoborot [Elektronniy resurs] // vc.ru. – Rejim dostupa: <https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanaooborot>.

4 <https://www.vedomosti.ru/finance/blogs/2019/06/27/804788> - bankovskaya-ekosistema.

5 www.cbr.ru – ЦБ РФ "Экосистемы: подходы к регулированию". – 2021. – С. 6

6 Jacobides M., Cennamo C., Gaver A. Industries, Ecosystems, Platforms, and Architectures: Rethinking our Strategy Constructs at the Aggregate Level. Working paper, London Business School, 2015.

7 Adner R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. Journal of Management, vol. 43, no 1, pp. 39–58. DOI: <https://doi.org/10.1177/0149206316678451>.

8 Parker G., Van Alstyne M.W. (2014) Platform strategy. – School of Management Research Paper No. – 2439323, Boston U. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2439323>.

9 Gaver A., Cusumano M.A. (2002) Platform leadership: how Intel, Microsoft, and Cisco drive industry innovation. Harvard Business School Press, Boston

10 Panova G. Paradoxes of financial market institutions: traditions and ecosystems // Financial Markets Evolution. Springer International Publishing. 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-71337-9\_3



majmuasi”<sup>11</sup> deb ta’rif beradi. Biroq, bu holda, dissertatsiya muallifining so’zlariga ko’ra, ekotizimlarning yuqori darajadagi o’zaro bog’liqlik va ekotizim ishtirokchilari o’tasidagi bir-birini to’ldirish kabi fundamental va o’ziga xos xususiyatlari hisobga olinmaydi. Ekotizim tushunchasining iqtisodiy ta’rifini keng ma’noda uchta asosiy guruhga bo’lish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jaroyonida abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usulblardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida tijorat banklarining biznes ekotizimi, qoida tariqasida, iste’molchiga turli xil mahsulotlar va xizmatlar ko’rsatiladigan bir nechta platforma tashkilotlari – xizmatlari samaradorligini oshirishda tijorat banklarining biznes ekotizimi asoslarini mamlakatimizdagи mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasi bank tizimi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim va jadal rivojlanb borayotgan yetkachi tarmog’lardan birdir. Bugungi kunda bank tizimini yanada takomillashtirish, tijorat banklaridagi omonatlarga aholi va tadbirdorlik sub’ektlarining vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larini jalb etishni rag’batlantirish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining investitsiya jarayonlarida keng ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Bank faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari bank faoliyatida, boshqaruв qarorlarini qabul qilish, mijozlar bilan ishslashni tashkil etish shuningdek, moliya bozorini o’zlashtirishda foydalanish mumkin bo’lgan innovatsion vositalar majmuasiga mutlaqo yangi talablarni qo’yadi. Boshqa tarmoqlarda qo’llaniladigan marketing usullari har doim ham bank sektoriga to’liq mos kelavermaydi.

Bugun davlatlarning geosiyosiy jarayonlari chuqurlashuvi va odamlarning tarqoq holda faoliyat yuritishlari davlatlar o’tasida to’siqlar va cheklowlar sharoitida qulay transchegaraviy o’zaro hamkorlik zaruratini paydo qildi. Korxonalar uchun transchegaraviy to’lovlar har doim me’yoriy hujjalarga rioxqa qilish, valyuta yig’imlari va vaqt xarajatlari bilan bog’liq qo’shimcha xarajatlar bilan birga keladi. Shu sababli, “2024-yilgi to’lovlar ekotizimi transchegaraviy to’lovlarni oddiy, tejamkorlik bilan amalga oshirish uchun yangi raqamli ishlov berish texnologiyalarini taqdim etishga qaratilmoqda”.

SEPA to’lov tizimi. “Yagona Yevropa to’lov hududi Yevropa Ittifoqi tashabbusi bo’lib, qit’aning 36 mamlakati ichida oddiy tranzaktsiyalarni amalga oshiradi. SEPA kredit o’tkazmalari va to’g’ridan-to’g’ri debetlar ko’rinishida evroda naqd pulsiz to’lovlarni xavfsiz, tez va samarali tarzda bir mamlakatning milliy chegaralari doirasidagi va barcha qoidalarga muvofiq amalga oshirish imkonini beradi”. ACh to’lov tizimi. “Avtomatlashtirilgan hisob-kitob markazi tarmog’i Amerika Qo’shma Shtatlaridagi istalgan bank hisobvarag’idan boshqasiga, qaysi davlatda joylashganidan qat’i nazar, pul va ma’lumotlarning xavfsiz va tejamkor elektron aylanishiga mo’ljallangan Amerika raqamli to’lov ekotizimidir”. Blokcheyn texnologiyalari “dunyo nihoyat kripto-raqamli bankingning global qabul qilinishini ko’radi. 2030-yilga kelib, blokcheyn texnologiyasi global yalpi ichki mahsulotning asosiy hissasiga aylanib, 2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda”.

**1-jadval:** Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro’yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisob raqamlari o’sish dinamikasi<sup>12</sup>

Yil (1-yanvar holatiga)	Mijozlar soni	Hisob varaqlar soni
2013	1285424	4622770
2014	1359831	4289556
2015	1432849	5030704
2016	1515004	5364838
2017	1638673	5809172
2018	1755492	6469921
2019	1880634	7263621
2020	2094262	7740964
2021	2145157	8270560
2022	2264419	8839315
2023	2383682	9408070

11 Кобылко А.А. (2019). Экосистемные компании: границы и этапы развития // Экономическая наука современной России. № 4 (87). С. 126–136. DOI: 10.33293/1609-1442-2019-4(87)-126-136.

12 Muallif hisob-kitoblari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning yillik hisobotlari asosida).



1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadi, Milliy ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 2 383 682 tani tashkil etib o'zining o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan 2021-yilning shu davriga nisbatan 119 263 taga oshgan. Shuningdek, hisobvaraqlar soni esa 2021-yilga nisbatan 568 755 taga oshib, 9 408 070 tani tashkil etmoqda. Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisobvaraqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar tijorat banklari va to'lov tizimining xo'jalik yurituvchi subektlari uchun kafolatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy qilishni o'z ichiga oladi, bu butun iqtisodiyotni to'liq raqamli o'zgartirishga olib keladi.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarни amalgalashish, mikro-qarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarни amalgalashish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalgalashish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida bank infratuzilmalari, turizm hamda boshqa ob'ektlarga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 57 foizga oshib, 2023-yil 1-yanvar holatiga 20,4 mingdan ortiqni tashkil etdi.

HUMO milliy to'lov tizimining funksionalini, infratuzilmasini rivojlantirish va ommabopligini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida, hisobot yilida jami bankomatlar orqali amalgalashish tranzaktsiyalar hajmida HUMO bankomatlaridan o'tkazilgan amaliyotlar ulushi 2021-yildagi 35 foizdan 49 foizgacha oshishi kuzatildi.

**2-jadval:** O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni hamda to'lov terminallari orqali amalgalashish to'lovlar summasining o'sish dinamikasi<sup>13</sup>

Sana	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To'lov terminallari orqali amalgalashish to'lovlar summasi (yil boshidan), mlrd. so'm
01.01.2013	112712	1417	16308
01.01.2014	129679	1733	22758
01.01.2015	169581	2012	31324
01.01.2016	183060	2345	53050
01.01.2017	208536	4954	52972
01.01.2018	235712	5632	63712
01.01.2019	244913	6859	71020
01.01.2020	392361	9203	75051
01.01.2021	438410	11800	81000
01.01.2022	433384	12940	111137
01.01.2023	434018	20379	177671

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadi, O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari soni yildan-yilga ortib borayotganini ko'rish mumkin. 2022-yil davomida o'rnatilgan to'lov terminallari soni 634 taga ko'paygan. O'rnatilgan to'lov terminallari soni 19 ta bankda ko'paygan. Eng ko'p o'sish MKBANK 5,2 ming dona, Aloqabank 1,4 ming dona, Universalbank 1,1 ming dona kuzatilgan. 13 ta bankning to'lov terminallari soni kamaygan. Eng ko'p pasayish Xalq banki -2,64 ming dona, Agrobank -2,58 ming dona, Garantbank – 1,20 ming dona kuzatilgan. Markaziy bank 2022-yilning may oyidan boshlab o'z balansidagi O'zInkassatsiya Birlashmasi DUK, iyun oyidan boshlab to'lov tashkilotlari balansidagi bankomat va infokiosklar statistikasini bera boshladi. Shu sababli 2022-yil davomida bankomat va infokiosklar sonida o'sish 7,4 ming donani tashkil qildi. Tijorat banklari orasida eng ko'p o'sish AT "Xalq banki" 899 ta, AT "MKBANK" 303 ta, AT "Agrobank" 238 ta, TIF "O'zmilliyybank" 113 ta va AT "Qishloq qurilish bank" 100 ta kuzatilgan. Jami 17 ta tijorat banki tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonida o'sish qayd etilgan. Yana 7 ta bankda ushbu ko'rsatkich o'zgarmagan bo'lsa, qolgan 9 ta bankda bankomat va infokiosklar sonida kamayish kuzatilgan. Eng ko'p pasayish ATB "Kapitalbank" – 1177 ta, CheKI "Hamkorbank" ATB -74 ta, AT "Asakabank" – 49 ta ATB "OFB" – 41 ta va ATIB "Ipoteka-bank", AT "Turonbank" har birida – 38 tadan qayd etilgan. 2023-yil 1-yanvar holatida eng ko'p bankomat va infokiosklar AT "Xalq banki" 2269 dona, AT "Agrobank" 2142 dona va ATB "Kapitalbank" 2096 donalarga tegishli. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'tgan yilgi yetakchi Kapitalbankning bankomatlar va infokiosklar segmentidagi ulushi o'tgan yilgi 25 foizdan bu yil 10 foizga pasaygan. 2022-yilda 1 ta terminal orqali oyiga 34 mln. so'm atrofida tushum tushgan. 2021-yilda 1 ta terminal orqali oyiga

13 Muallif hisob-kitoblari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).



21 mln. soʻm atrofida tushum tushgan edi. Shuningdek, bugungi kunga qadar respublikada xalqaro talablarga javob beradigan va “uchta tizimdan iborat – banklararo, bank ichidagi va chakana toʼlov tizimlaridan iborat samarali toʼlov tizimi yaratildi”<sup>14</sup>.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish haqida gapirganda, bu borada hamma narsa oʼzaro bogʼliqligini alohida taʼkidlash lozim. Demak, keng polosali internet va mobil internet qamrovini yoymasdan turib, elektron hukumat, raqamli tadbirkorlik, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalangan holda taʼlim, shuningdek, raqamli banklar haqida xulosa chiqarish qiyin.

Anʼanaviy banklar toʼsatdan odamlar hatto oʼz ofisiga ega boʼlimgan raqobatchilarga murojaat qila boshlaganini payqashdi. Sababi juda oddiy – odamlar oʼz vaqtlanini tejashni va hisob ochish uchun bir marta kelish kifoya qiladigan, qolgan hamma narsa masofaviy va ular uchun qulay, eng koʼp boʼlgan kanal orqali banklarni tanlashni xohlashadi. Natijada, mijozlar bazasi asta-sekin bank xizmatiga tubdan boshqacha yondashuvni taklif qiladigan joyga oqib chiqa boshlaydi. Bundan tashqari, raqamli tizimga oʼtish banklarga mijozlar haqida koʼproq maʼlumot olish va ularning odatlari, xohish va istaklarini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi.

## XULOSA

Umuman olganda, moliya bozorida yaratilgan shart-sharoit va mahsulotlardan samarali foydalanish moliyaviy savodxonlik va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilishga asoslanadi, bu esa moliya institutlari va ularning mijozlarini jalg etish va kelgusida oʼzaro hamkorlik qilish uchun asos yaratadi. Banklar uchun veb-saytlarda call-markazlar va isteʼmolchilarning shikoyatlarini koʼrish vositalari boʼlishi talablari belgilandi.

Raqamli banklar asosiy eʼtiborni zamonaviy texnologiyalarga va onlays-banking xizmatlariga (ilgʼor yoshlar va biznes) oʼrganib qolgan maqsadli auditoriyaga qaratadi. Bunday banklar uchun asosiy daromad manbalari tranzaktsiya toʼlovlari, VIP yoki premium xizmatlarga pullik obunalar va uchinchi tomon xizmatlaridan olinadigan komissiyalaridir (masalan, bank ilovasiga integratsiyalashgan va raqamli aloqada boʼlish uchun “ijara” toʼlaydigan onlays-doʼkon) bank platformasi). Shuhbasiz, koʼplab ijobji holatlar mavjud, ammo shuni taʼkidlash kerakki, salbiy holatlar ham mavjud boʼlib, ular asosan raqamli mahsulotlar va ulardan foydalanish qulayligi bilan bogʼliq.

Mamlakatimiz tijorat banklari oʼz mijozlariga bugungi kunda eng soʼnggi va yuqori texnologiyali axborotga asoslangan onlays-banking xizmatlarini taqdim etayotganligi maʼlum boʼldi. Shuningdek, masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan imkon qadar qulay foydalanish imkonini beradi va bank bilan ishlashda vaqt va moliyaviy xarajatlarni minimallashtiradi. Masofaviy bank xizmatining asosiy tamoyili mijoz va bank oʼrtasida turli xil maʼlumotlarning masofaviy almashinuvidir. Shu bilan birga, bank ushbu operatsiyaning xavfsizligini taʼminlaydi.

Bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy taʼminotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, maʼmuriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobji taʼsirlari ham mavjud. Jumladan, muammoli kreditlarni tahlil qilish va ular boʼyicha ishlashni avtomatlashtirish asosida juda koʼp sonli muammoli kreditlar bilan ishlashni oson va qisqa vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son “2020–2025-yillarga moʼljallangan Oʼzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʼgʼrisida”gi Farmon. Qonun hujjatlari maʼlumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy banko skiy jurnal (NBJ). 2018.
3. Ivanov, A. Ekosistema naoborot [Elektronny resurs] // vc.ru. – Rejim dostupa: <https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanaoborot>.
4. Jacobides M., Cennamo C., Gawer A. Industries, Ecosystems, Platforms, and Architectures: Rethinking our Strategy Constructs at the Aggregate Level. Working paper, London Business School, 2015.
5. Adner R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. Journal of Management, vol. 43, no 1, pp. 39–58. DOI: <https://doi.org/10.1177/0149206316678451>.
6. Parker G., Van Alstyne M.W. (2014) Platform strategy. School of Management Research Paper No. 2439323, Boston U. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2439323>.
7. Gawer A., Cusumano M.A. (2002) Platform leadership: how Intel, Microsoft, and Cisco drive industry innovation. Harvard Business School Press, Boston.
8. Panova G. Paradoxes of financial market institutions: traditions and ecosystems // Financial Markets Evolution. Springer International Publishing. 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-71337-9\_3
9. Кобылко А.А. (2019). Экосистемные компании: границы и этапы развития // Экономическая наука современной России. No 4 (87). С. 126–136. DOI: 10.33293/1609-1442-2019-4(87)-126-136.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.